



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “15” dekabr

01-11607 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
5-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«6» dekabr 2023 yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. 2-Davolash fakulteti hisoboti.

**Ma‘ruzachi** – 2-davolash fakulteti dekani Inazarov Akmal Abdullayevich.

2. Magistratura va klinik ordinatura bo‘limining 2022-2023-o‘quv yili bo‘yicha hisoboti.

**Ma‘ruzachi** – Magistratura bo‘limi boshlig‘i Imamov Abduraxmon Abduganiyevich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma‘ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma‘ruzachi** – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "2-Davolash fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha 2-davolash fakulteti dekani Irnazarov Akmal Abdullayevichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Fakultet kafedralarida o'quv jarayonini zamonaviy darajada va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda sifatini ko'tarish maqsadida o'quv reja, dasturlarni hamda amaliy ko'nikmalarni qayta ko'rib chiqilishi va yangilanishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 2-son Davolash fakulteti dekani A.A.Irnazarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili, dekabr-yanvar.**

1.2. Barcha fakultet kafedralarida talabalarga o'qitilayotgan ma'ruzalarning sifati hamda jozibadorligini oshirish maqsadida tajribaga ega pedagoglar tomonidan ma'ruzalar o'qilishi, prezentatsiya, audio-va video-mahsulotlarni va tarqatma materiallarni yangilanishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

1.3. Fakultet kafedralarining o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy mahsulotlarini yaratilishi bo'yicha monitoringi olib borilishi ta'minlansin. Jumladan, o'quv va ilmiy mahsulotlari past bo'lgan kafedralar alohida nazoratga olinishi hamda yil yakuni bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan professor-o'qituvchining rag'batlantirilishi masalasi qayta ko'rib chiqilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

1.4. Kafedra majlislarida fanlar bo'yicha talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari muntazam ravishda muhokama qilinishi va kerakli chora ko'rilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

1.5. Talabalar bilimini Reyting Nizomiga to'liq rioya qilinishi, nazoratga olinishi hamda har bir talabaning olgan baholari o'z vaqtida jurnalga qo'yilishi va e'lon qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

1.6. Barcha kafedralardagi yosh pedagoglarni tajribali pedagoglarga birlashtirilishi va ularni nazorat qilinishi muntazam ravishda olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o‘quv yili davomida.**

1.7. Talabalar tomonidan qoldirilgan darslarni qayta topshirishni talab darajasida tashkil etilishi hamda ushbu jarayon kafedralardagi tasdiqlangan navbatchi pedagoglar grafigi bo‘yicha olib borilishi ta‘minlansin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o‘quv yili davomida.**

1.8. Qo‘shimcha qabul qilingan va boshqa OTMlardan o‘qishi ko‘chirilgan talabalarning o‘zlashtirishini kafedra va dekanat bilan hamkorlikda nazorat va monitoring olib borilishi ta‘minlansin, shuningdek, xavf guruhini tashkil etgan talabalar bilan alohida yondashuv asosida (qo‘shimcha fakultativ darslar va h.k.) olib borilishi ta‘kidlab o‘tilsin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o‘quv yili davomida.**

1.9. Talabalarni ilmiy ishlarga jalb qilinishi hamda kafedralardagi ilmiy to‘garaklarda, shuningdek nufuzli Xorijiy va Respublika miqyosidagi tanlovlarda ishtirok etishlari kuchaytirilsin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o‘quv yili davomida.**

1.10. Akademiyaning barcha professor-o‘qituvchilari HEMIS tizimiga o‘quv-ilmiy faoliyatiga doir (ilmiy loyihalar, uslubiy va ilmiy nashrlar, intellektual mulklar va h.k) mahsulotlarini to‘liq kiritishlari ta‘minlansin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o‘quv yili davomida.**

1.11. HEMIS tizimiga boshlang‘ich kurslarga dars beruvchi kafedralar tomonidan barcha o‘quv jarayoniga taaluqli yangilangan o‘quv-uslubiy materiallar, fan bo‘yicha foydalanadigan resurslarini to‘liq kiritishlari ta‘minlansin.

**Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o‘quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi “Magistratura va klinik ordinatura bo‘limining 2022-2023 o‘quv yili bo‘yicha hisoboti” mavzusi bo‘yicha Magistratura bo‘limining boshlig‘i Imamov Abduraxmon Abduganiyevichning ma‘lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

2.1. Barcha magistratura mutaxassisliklarida ko‘rsatkichlarni to‘liq raqamlashtirilishi va Hemis tizimida to‘liq o‘tish jarayonini 2023-2024 o‘quv yili oxirigacha amalga oshirilishi ta‘minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.2. Barcha magistratura mutaxassisliklarida davomat jarayoniga alohida e'tibor qaratilishi va nazorat olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

2.3. Magistratura mutaxassisliklarida magistr-talabalarning zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash maqsadida xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda hamda bitiruvchilarning amaliyotlarini inobatga olgan holda o'quv reja, modul dasturlari, rotatsiyalar va amaliy ko'nikmalar ro'yxati qayta ko'rib chiqilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.4. Kafedralarda bakalavriat talabalari orasida magistratura mutaxassisliklariga kiradiganlarini seleksiya – ajratib olish va magistratura mutaxassisliklariga tayyorlanishi, shuningdek, bakalavr va magistr-talabalar orasidan iqtidorlilarni aniqlab, ular bilan alohida ish reja bo'yicha nufuzli Xorijiy va Respublika tanlovlariga tayyorlash ishlari olib borilishi va ishtiroki ta'minlansin. Iqtidorli talabalarni Davlat hamda nomli stipendiyalariga tavsiya qilinishi, OTM hamda ilmiy markazlarda ish bilan ta'minlanishi Akademiyaning Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.5. O'quv yili davomida magistr-talabalar orasidan iqtidorlilarni ajratib olib keyingi bosqich - doktoranturaga tayyorlash hamda Akademiya kafedralariga ishga olib qolish bo'yicha ishlar olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.6. Magistraturada mutaxassislik modullari bo'yicha dars beruvchi professor-o'qituvchilarni to'liq ilmiy darajasi bor tajribali pedagoglar bilan shakllantirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

2.7. Magistraturaga kirish bo'yicha kvotalari bajarilmagan va soni kam bo'lgan mutaxassislik kafedralarining bitiruvchi talabalari hamda amaliyotdagi yosh mutaxassislar bilan kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni rejali tashkil qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

2.8. Magistr-talabalarning dissertatsiya mavzulari Akademiyaning ilmiy-tadqiqot Biotibbiyot laboratoriyasi bilan hamkorlikda va imkoniyatlaridan foydalangan holda shakllantirilishi inobatga olinib amalda tasdiqlanishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.9. Respublikamiz viloyatlarida OTMLar tarkibida tashkil qilingan tibbiyot fakultetlari uchun mutaxassis pedagoglarga bo'lgan extiyojdan kelib chiqib Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bitiruvchi-magistr talabalarga maqsadli kvotalar ajratilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.10. Magistr-talabalarning dissertatsiyalari sifatiga alohida e'tibor qaratilishi, ularni "antiplagiat" elektron tizimidan tekshirilishi hamda himoyalari ingliz yoki boshqa chet tillarida o'tkazilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.**

2.11. Magistr-talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari natijalari Akademiyaning "Yosh olimlar jurnali" da chop etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024-o'quv yili davomida.**

2.12. Mutaxassislik kafedralari har yili o'quv yili oxirida kamida 10 ta bitiruvchi bakalavrni o'z mutaxassisliklari bo'yicha tayorlashi va ular to'g'risida hisobotni magistratura bo'limiga taqdim etishlari yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024- o'quv yili davomida.**

2.13. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha dissertatsiya mavzulari bankini tashkil etish maqsadida mutaxassislik kafedralari har yili o'quv yili oxirida kamida 10 ta dissertatsiya mavzularini magistratura bo'limiga taqdim etishlari ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-2024 -o'quv yili davomida.**

3.Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova 14.00.07 - Gigiena ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Azizova Feruza Lyutpillaevnadan, 14.00.27- Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Ismailov O'ktam Safaevichdan, 14.00.04 - Otorinolarinologiya ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Bakieva Shahlo Hamidullaevnadan, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Xaydarova Dildora Kadirovnadan hamda 03.00.01 – Tibbiy biokimyo ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga talabgor Tursunov Djaxangir Xusanovich nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdilar (2- va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. **Turli masalalar** bo'yicha, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov so'zga chiqdilar.

5.1. Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasini professori G.I.Shayxova rahbarligida "Kasallik turlari, jumladan yurak qon-tomir va diabet kasalligi bo'yicha bemorlar uchun parhez odatlariga asoslangan ovqatlanishni baholashning milliy tizimini ishlab chiqish" nomli grant loyihasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida taqdim etishga tavsiya etilsin.

5.2. 2-kurs neyroxirurgiya yo'nalishi magistr talabasi Allanazarova Nazira Muratbay qizi- Chexiya Respublikasi, Usti nad Labem Department of Neurosurgery Masachuk Hospital, University J.E.Purkinje (muddat 2024- yil 15- yanvardan 2024- yil 11- fevralgacha) ga stajirovka o'tishiga tavsiya etilsin.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-sonli qaroriga asosan OTMlarda ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning 60% iga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidan, ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning 40 % iga esa ijara to'lovining bir qismini OTMning budjetidan tashqari

mablagʻlari hisobidan qoplab berilishini nazarda tutib, ijara huquqi asosida yashayotgan TTAning talabalarining 40% iga ijara pulining bir qismini TTAning byudjetidan tashqari mablagʻlari hisobidan qoplab berilsin.

**Masʻul: Moliya iqtisod ishlari boʻyicha prorektor (v.v.b.S.I.Dustmurodov), Reja-moliya boʻlimi boshligʻi (O.U.Gʻoipov), Bosh buxgalter (B.I.Alijonova), Talabalarni turar joy bilan taʻminlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi boʻlim boshligʻi A.U.Aliqulov.**

**Muddat: 2023-yil dekabr oyidan boshlab.**

5.4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Sanoat va iqtisodiyotga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3698-sonli va Akademiyaning Kuzatuv kengashining 2023-yildagi 1-son yigʻilishi qaroriga muvofiq ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni ragʻbatlantirish, ilmiy laboratoriya moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek kichik Startap loyihalari yakunlanganligi tasdiqlansin.

5.5. 2023/2024-oʻquv yili uchun 2023-yil 5-dekabrda Stomatologiya (Xorijiy) taʻlim yoʻnalishining 1-kurs (23-06-guruh) talabalari uchun oʻquv reja, ishchi oʻquv rejasi hamda Xorijiy (Stomatologiya), Kazan 1-, 3- va 5- kurslari uchun modul dasturlari, SILLABUSlari tasdiqqa tavsiya etilsin va oʻquv jarayoniga tadbiriq etilsin.

5.6. Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023-yil “28” noyabrdagi № 02144-sonli buyrugʻi ijrosini taʻminlash maqsadida Akademiyaga biritirilgan texnikumlarga abituriyentlarni tasdiqlangan qabul parametrlariga koʻra vakant qolgan oʻrinlarga Akademiyaning professor-oʻqituvchilarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish jarayonlari boʻyicha hisobot qabul qilinsin.

5.7. Travmatologiya, ortopediya, XDJ va neyroxirurgiya kafedrası xodimlari tomonidan professor Asilova Saodat Ubayevna rahbarligidagi “COVID-19 bilan bogʻliq boʻlgan son suyagi boshchasining aseptik nekrozini davolash va diagnostika taktikasi boʻyicha protokollarni ishlab chiqish” mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar boʻyicha oliy taʻlim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etilgan hisobot natijalari oliy darajada eʼtirof etilgani munosabati bilan 5% miqdorida loyiha doirasidagi xodimlarni (Asilova S.U., Nazarova F.N., Akramov V.R., Kosimov A.A., Umarova G.S., Shirinov D. Q., Ernazarov J.G., Abdullayev M.M., Mirzayev A.B., Anorboyev M.X., Nazarov R.B.) moddiy ragʻbatlantirishga tavsiya etilsin.

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 527741  
Sana: 15.12.2023